



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA KICHIK YOSHDAN BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH.

Ishquvatova Zaynab Ro'ziyevna

Surxondaryo viloyati Termiz tumani

14-Maktabgacha ta'lim tashkiloti

+998941389000

zaynabiwquvatova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10254219>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-November 2023 yil

Ma'qullandi: 28- November 2023 yil

Nashr qilindi: 30-November 2023 yil

KEY WORDS

MTT, nutq, kommunikativ, element, ehtiyoj, o'yin, emotsional, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoq, quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik, faoliyat, jamiyat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida kichik yoshdan bolalar nutqini rivojlantirish vazifalari, yo'llari, usullari va metodikalar orqali tavsiyalar berib yoritib borilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida 3-4 yoshdagi bolalar bilan rasmlar asosida, ularga qarab tasvirlash, gap tuzish kabi mahoratlarini oshirish orqali bolalar nutqini rivojlantirish ko'zda tutilgan. Nutq rivojlanishi uchun obrazli rasmlardan foydalanish, rasmdagi muhim tasvirlardan, ertak qahramonlar obrazida ijro etish orqali nutqini yanada rivojlanadi. 3-4 yoshdagi bolalarni nutqini rivojlantirish uchun rasmlar, ertak terapiya orqali bolalarda kreativlikni shakllantirish, ular bergan savollar orqali javob berishda ham bolalarda ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi, yangidan yangi so'zlarni o'rgana boshlaydi va o'zlashtiradi va fikrlash doirasi kengayadi. Natijada, o'ziga bo'lgan ishonch, ota-onaga va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, hurmat, sadoqat kabi tuyg'ular shakllanadi.

Bolaning nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o'yin vazifalaridan biri bu bolaning so'zlarini boyitish, tushunchalarni o'zlashtirishda, ishlatilgan so'z boyligining oshishida hamda o'yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, o'z tiliga qiziqish va e'tibor tarbiyalanadi. O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni

barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq bu narsaning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Ko'pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola o'yinchoqlar bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zlari orasida bo'ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomala madaniyatlari, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O'yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdagilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi.

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning mehri, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi.

Asosan bolalar bu yoshda juda ham ko'p savollar berib kattalar bilan tortishishadi, xattoki bitta savolni qayta-qayta beraverib, hammani bezdirib yuborishi ham mumkin. Ammo tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolalar rivojlanishi, dunyoqarashi shakllanishi uchun bu javoblar bolalar hamda tengdoshlari orasida juda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolalar nutqini rivojlanishida, ijodkorlik qobiliyatlari shakllanishida ham kattalarning xatti-harakatlari juda muhim sanaladi.

Kattalar bilan muloqotning yangi shakli – qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi. Bolalarning katta yoshli odam bilan muloqotga bo'lgan ehtiyojining qondirilmasligi ular o'rtasida emotsional jihatdan begonalashuvga olib keladi. U turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: ba'zi bolalar indamas, hurkak, arzimagan narsaga ham yig'lab yuboruvchi bo'lib qoladilar; boshqalari esa – negativizm, tajovuzni namoyon qilishadi. Bola hayotining to'rtinchi yilida tengdoshi uning uchun eng avvalo, birgalikdagi amaliy faoliyat (rasm chizish, narsa yasash, tuzish va h.k.) ishtirokchisi, o'yindagi sherik sifatida qolaveradi. Bola tengdoshiga eng oddiy talablar, iltimoslar bilan murojaat qiladi va tengdoshining harakatiga baho beradi. Besh yoshli bolalar tengdoshlarining hadeb u yoki bu narsani so'rab, jonga tegishini salbiy baholaydi. Besh yoshga kelib, tengdoshlari bilan muloqotga va ular bilan bolalar jamiyatini vujudga keltiradigan birgalikdagi o'yinlarga bo'lgan ehtiyoj keskin ortadi. Bola hayotining beshinchi yiliga kelib, u o'z tengdoshlari o'rtasida o'z o'rnini anglay boshlaydi. Kommunikativ ko'nikma rivojlanadi: bola salomlashadi va xayrlashadi, do'stini ismini aytib chaqiradi, to'rt-besh yoshlarga kelib – sherigini u o'ynayotgan rol nomi bilan chaqiradi («hoy, shofyor, arqon g'ildirakning tagiga tushib ketdi»). Kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish bolaga o'zining «men»ini anglash imkon beradi.

Uch yashar bola nutqini rivojlantirishga oid vazifalar:

- bolaning imkon doirasi va undan tashqaridagi nutq vositalari bilan faol muloqotga kirishishi, kattalarning savol va takliflariga javob berishi, o'z istak xohishlari, hissiyotlari, fikrlarini ifoda qilgan holda tashabbus ko'rsatib fikr bildirishga intilishini qo'llab-quvvatlang;
- tengdoshlari ishlariga qiziqishi, o'z taassurotlarini ular bilan o'rtoqlashishni istashi, o'yin

harakatlari, ro'yi berayotgan hodisaga munosabatini nutq bilan ifodalashga qiziqishini rag'batlantiring;

- bolangizning lug'at zahirasini kishilar, o'simliklar, oziq-ovqatlar, kiyim-boshlar, mebellar, uy hayvonlari, o'yinchoqlar, narsa-buyum qismlari (ko'ylak yengi, cho'ntaklari va yoqasi; mashina eshigi va g'ildiragi kabilar) nomlari bilan boyitib boring. Gapda so'zlarni bir-biriga to'g'ri bog'lashni (masalan, «Uyda ketdi» emas, «uyga ketdi», «Kecha boraman» emas, «Bugun boraman») o'rgatishga alohida e'tibor bering;

- bolalarni unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgating.

Bola tashqi dunyoni xotira, tasavvur, xayol, tafakkur kabi ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish qobiliyatiga ega. Ammo, bolalardagi intellekt, ya'ni ruhiy jarayonlar (xotira, tasavvur, xayol, tafakkur va hokazo) shunchaki bola organizimining o'sib borishi va takomillashishi bilangina paydo bo'lmay, balki nutqining rivojlanishi bilan paydo bo'ladi va takomillashadi. Agar bola kichik yoshidan boshlab to'g'ri gapirishga (so'zlashishga) o'rgatib borilsa, u vaqtda bunday bola meyoriy holatda rivojlanadi, ya'ni avval tasavvur etish, keyin esa fikr yuritish, xayol qilish qobiliyati paydo bo'ladi va bu qobiliyat har bir yosh bosqichida takomillashib boradi. Bolalarda intellekt bilan barobar ravishda iroda kabi ruhiy jarayon ham takomillashib boradi. Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatadiki, nutqi rivojlanmagan bola to'liq shaxs sifatida kamol topmaydi. Demak, tarbiyachi har doim shuni esda tutishi kerakki, nutq bu maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda barcha ruhiy jarayonlar rivojlanishiga ko'maklashuvchi vositadir. Bolaga ona tilini o'rgatish bilan bir vaqtda, uni maktabgacha ta'lim tashkilotida muvaffaqiyatli o'qishi uchun zamin tayyorlanadi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishga o'rgatiladi. Bolalar bog'chasining barcha tarbiyaviy-ta'limiy ishlarida bolalarga ona tilini o'rgatish orqali ularning nutqi o'stiriladi. Ayniqsa, nutq o'stirish mashg'ulotlarida har bir bolaning nutqini o'stirish bo'yicha ishlar rejalashtiriladi. Bolalarga barcha mashg'ulotlarning mazmunini anglashga asosan tarbiyachi yordam bera oladi. Bola kuzatish va nutq orqali dunyoni, borliqni bilib oladi: tevarakatrodagi narsa va buyumlarning, voqea va hodisalarning nomini, sifatlari va belgilarini, xususiyatlarini, o'xshash va farqli tomonlarini aytishga o'rganadi.



Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5 ta metodika bo'yicha bolalarga ta'lim-tarbiya saboqlari berib boriladi. Bulardan eng asosiysi «Nutq o'stirish mashg'ulotlari» desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, nutq o'stirish nafaqat bolaning so'z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobiliyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarining, shu jumladan bolaning tafakkurini o'stirishda ham muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqori talablar qo'yilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi. Shunday qilib, pedagogika ilmining hozirgi bosqichida maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga nisbatan qo'yiladigan talablar bilan ushbu talablar ijrosi o'rtasida ziddiyatlar namoyon bo'lmoqda.

Bola ulg'ayar ekan, unda so'zlashishga ehtiyoj paydo bo'la boshlaydi;

- Dastlab atrofdagilarini taniydi, eshitgan so'z va jumllarini asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Tilga kirgach esa uning so'z boyligi jadal o'sadi. Oddiy so'zlar, keyinchalik sodda gaplardan va to'liq, yoyiq gaplardan foydalanadi. Dialogik nutq oilada, ota-ona, aka-opalar davrasida vujudga keladi. O'ziga kerakli narsani so'rash uchun harakat qiladi, muloqotga kirishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirishda oldindan tayyorlangan

mavzularda suhbatlar, teatrlashtirish usullari, sahnalashtirish o'yinlari, savol-javoblar juda foyda beradi.



Ta'kidlash joizki, bola uchun katta yoshli odam savollarga javob topishning yagona vositasi, qiziqarli taassurotlar manbai hisoblanadi. Bola kattalar bilan dialogga kirishishga, narsalar va o'yinchoqlarga egalik qilishga intilarkan, u ushbu maqsadlarga erishish uchun so'zdan foydalanishga ehtiyoj sezadi, ba'zida o'zi tashabbus ko'rsatib, fikr bildiradi. Katta yoshli odam bola bilan dialogga kirishish jarayonida bolaning bir so'zli fikrlarini grammatik jihatdan to'liq shakllantirilgan so'zlarga aylantirish orqali uning kamchiliklarini tuzatadi. Bola o'rganganlarini faol o'zlashtiradi va undan o'z nutqida foydalanadi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda uning ota-onasi, aka-opalari va tarbiyachilarining hisssasi katta.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida kichik yoshdan bolalar nutqini rivojlantirishning bir necha foydali usullari mavjud. Bu usullar bilan bolalar o'z nutqini o'rganish, o'zlarini ifodalash va kommunikatsiya qilish qobiliyatlarini rivojlantirishadi.

1. O'yinlar va musiqa: O'yinlar va musiqa bolalarning nutqini rivojlantirishga yordam beradi. O'yinlar orqali bolalar o'z fikrlarini ifodalash, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va so'zlar orasidagi aloqalarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi. Musiqa esa bolalarning so'zlar bilan o'zaro bog'lanishini o'rgatadi va nutqini rivojlantiradi.

2. Hikoya yaratish: Hikoya yaratish va o'qish bolalarning nutqini rivojlantirishning yetakchi usullaridan biridir. Hikoya yordamida bolalar so'zlar va gaplarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi, so'zlar orasidagi bog'lanishlarni tushunish va o'z fikrlarini ifodalashni rivojlantiradi. Shu bilan bir qatorda so'z boyligi ham ortadi. Fikrlash qobiliyati, tasavvuri

yanada kengayadi.

3. **Rol o'yinlari:** Rol o'yinlari bolalarga nutqini rivojlantirishda yordam beradi. Bu o'yinlarda bolalar turli vaziyatlarni taklif qilganlikka tayanishadi, so'zlar orqali o'zlarini ifodalay oladilar va boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganishadi. Rol o'yinlari bolalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. **So'z o'yinlari va gaplashuvlar:** So'z o'yinlari va gaplashuvlar bolalar orasidagi muloqotni rivojlantirishda foydalaniladi. Bu o'yinlar orqali bolalar so'zlar va gaplarni to'g'ri talaffuz qilish, so'zlar orasidagi bog'lanishni tushunish va so'zlar bilan ifodalashni o'rganishadi.

5. **Kommunikativ mashg'ulotlar:** Kommunikativ mashg'ulotlar, bolalar orasidagi muloqot va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu mashg'ulotlar orqali bolalar so'zlar va gaplar orqali o'zlarini ifodalashni o'rgangan holda boshqalar bilan muloqot qilishni o'rganadi.

Bu usullar tashkilotlar va pedagoglar tomonidan o'rgatish jarayonida qo'llaniladi. Ular bolalarning nutqini rivojlantirishda, muloqot jarayonining shakllanishida o'zlashtirilgan o'quv usullaridan foydalanishadi hamda bu yaxshi, samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://azkurs.org/maktabgacha-kichik-yoshdagi-bolalar-nutqini-ostirish-reja.html>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-yoshidagi-bolalar-nutqini-ostirishda-kommunikativ-muloqot-o-rni>
3. Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154>
DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510>
4. <https://phys-tech.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/download/5111/3534>
5. <http://ilmiy.bmti.uz/blib/files/86/NUTQ%20%200%E2%80%98STIRISH%20%20NAZARI YASI.pdf>
6. <https://www.samdu.uz/uz/news/30008>